ISSN: 2181-3906
2025

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 4 / ISSUE 5 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

ATOIY DEVONIDA ETNONIMLARNING QO`LLANILISHI

Nasillayeva Muxlisa Murodullo qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti.
E-mail: *muxlisanasrullayeva022@gmail.com*
https://doi.org/10.5281/zenodo.15550376

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Atoiy devonida kelgan etnonimlar tahlil etiladi. Devonda uchraydigan etnik nomlar turli xalqlar, qabilalar bilan bog`liq bo`lib, ularning leksik-semantik va badiiy-estetik vazifalari yoritilgan. Shoir ijodida etnonimlarning qo`llanish uslubiyati hamda o`ziga xosliklari ochib beriladi. Etnik birliklarning qo`llashdagi Atoiyning badiiy mahorati yoritiladi.*

Kalit so`zlar: *Atoiy, devon, etnonim, leksik tahlil, badiiylik, xalq nomi, badiiy obraz.*

Abstract. *This article analyzes the ethnonyms found in Atoiy's Devon. The ethnic names occurring in the work are associated with various peoples and tribes, and their lexical-semantic and artistic-aesthetic functions are highlighted. The usage style and peculiarities of ethnonyms in the poet's works are explored, and Atoiy's poetic mastery in employing these ethnic elements is revealed.*

Keywords: *Atoiy, Divan, ethnonym, lexical analysis, artistry, ethnic name, artistic image.*

Аннотация. *В данной статье анализируются этнонимы, встречающиеся в диване Атоия. Этнические названия, представленные в сборнике, связаны с различными народами и племенами; раскрываются их лексико-семантические и художественно-эстетические функции. В статье рассматриваются особенности использования этнонимов в творчестве поэта, а также раскрывается поэтическое мастерство Атоия в их применении.*

Ключевые слова: *Атоий, диван, этноним, лексический анализ, художественность, название народа, художественный образ.*

Kirish. Billamizki, Sharq mumtoz adabiyotida millat, xalq va etniklik masalalari badiiy tafakkurda o‘ziga xos ko`rinishda ifoda topgan. Huddi shunday, turkiy adabiyotda shoirlar tomonidan qo‘llanilgan etnonimlar asarning tarixiy-madaniy manzarasini ochishda asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu kabi leksik birliklar orqali adiblar o‘z davrining etnik tarkibi, ijtimoiy tuzilmasi va madaniy qarashlarini badiiy talqinda ifoda etganlar. XIV asrda ijod etgan, Temuriylar davri adabiyotining yetuk namoyondasi bo`lmish Atoiy ijodida ham etnonimlar alohida e’tiborga loyiqdir. Uning devonida uchraydigan xalq nomlari -shoirning davr ruhini anglash, uning dunyoqarashi va tarixiy ongini tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi.

Bu maqolada Atoiy devonida ishlatilgan etnonimlar leksik-semantik jihatdan tahlil qilinadi hamda ularning badiiy-estetik vazifalari yoritiladi.

Atoiy devonida uchraydigan etnonimlar shoirning obrazlar tizimida muhim semantik ma`no kasb etadi. Bu turdagi birliklar, ko‘pincha, majoziy va ijtimoiy-ma’naviy jihatni kengaytirishda vosita sifatida xizmat qiladi. Quyida shoir foydalanilgan asosiy etnonimlar asosida ayrim baytlar tahlil qilinadi.

“Turk” so`zi etnonim sifatida qadimdan qo`llanilgan bo`lib, o`zbek xalqi ham turk deb nomlangan. O`rta va Markaziy Osiyo dagi barcha turkiy xalqlar turklar deb yuritilgan.

Bu nomning kelib chiqishi haqida ko`plab ma'lumotlar keltirilgan bo`lib, jahon olimlari izlanishlarida ham turkiylar haqida yetarlicha ma'lumot uchraydi. Xususan, xitoy yilnomlarida turk atamasi *tukyu* yoki *tugyu* deb keltirilgan. Ko`plab olimlar bu atamaning ma'nosini izohlashga harakat qilganlar. Jumladan, turk atamasi *yaratish, inson* (H.Vamberi), *kuch, qudrat* (Y.Nemet), qabilalar harbiy uyushmasi (V.V.Bartold) kabi ma'no anglatishi haqida qarashlar yuzaga kelgan. Shunday qilib, *turk so'zi o'tmishda urug', elat, kuchli, qudratli, botir, jasur, qo`rqmas; alohida jangchilar guruhi, qurolsozlar, dubulg`a, sodda, turk xoqonligini tashkil qilgan, siyosiy jihatdan uyushgan, harbiy jihatdan qudratli qabilalar ittifoqi* ma'nolarini anglatgan. [6. 6] Quyidagi baytda turk etnonimi go'zal qiyofasi bilan oshiq qalbini zabt etuvchi obraz sifatida ishlatilgan. Shoirning ko'nglini zabt etgan bu go'zallik egasi "turk ekoch" deb ta'riflangan - bu esa nafaqat tashqi chiroy, balki aqlli va tadbirkor fe'l-atvorni ham anglatadi.

O'zni o'lturmak musulmonlikdin ermastur, vale,
Men o'zumni o'lturay sen ***turki kofirkesh*** *uchun.* [5.164]

Keyingi baytda "turki kofirkesh" birikmasi kuchli majoziy yuklama bilan ifodalangan.

Shoir islomiy aqida asosida joniga qasd qilish harom ekanini bilgan holda, turk go'zali uchun o'z jonini qurbon qilishga tayyorligini ifodalaydi. Bu yerda "kofirkesh" (kofirlarni ham o'ziga rom qiluvchi) tarzida ishlatilgan etnonim go'zalning ta'sir kuchini yuksak darajada ifodalaydi.

Usruk ko'zung karashmada har lahza qon to'kar,
Ey ***turki shergir****, ne maydon suvorisen.* [5.179]

Endi Atoiy turk etnonimini shergir so`zi bilan bog`laydi. Baytda "turki shergir" birikmasi go'zalni sherga qiyoslash, jasorat va go'zallikni birlashtirish orqali kuchli obraz yaratgan.

Yorning ko`zlari karashma qilib har lahza oshiqlar qonini to`kadi, buni ko`rgan shiq esa, yorni sherga o`xshatadi. Shoir "maydon suvorisi" deyish orqali yorning qon to`kishini jang maydonidagi suvoriyga o'xshatadi. Turk etnonimi bu yerda jasorat va go'zallik uyg'unligining timsolidir.

Chinu Mochinu Xo'tanda ko'zlaringtek rahmsiz,
Bexato qon to'kkuchi bir ***turki yag'mo*** *ko'rmaduk.* [5.127]

Ushbu baytda turk etnonimi yag`mo so`zi bilan birgalikda qo`llaniladi. Yag`mo so`zi "Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati"da ikki ma'noda keltiriladi: birinchi ma'nosi-talon-taroj, g`arotgarlik, buzg`unchilik, ikkinchisi-qabila nomi.[3.602] Shoir ko'zning rahmsizligi va jozibadorligini tarixiy tajovuzkor elatlar qiyosida tasvirlaydi. "Yag'mo" so'zi esa bu turkiy go'zallik egasining yuraklarni zabt etuvchi, fath qiluvchi kuchini tasvirlaydi. Yorning ko`zlaridek rahmsiz va qon to`kishda xato qilmaydigan turki yag`mo (talonchi) Chinu Mochinu Xo`tanda uchramaydi.

Ko'nglumni ***o'zbak*** *o'ljasi qildi qiyo boqib,*
Bu xon urug'i qaysi ulusning qiyotidur. [5.74]

Mazkur baytda **"o'zbak"**, ya'ni **o`zbek** etnonimi keltirilgan bo`lib, ushbu etnonim haqida ko`plab olimlar fikr yuritishgan. Ularning keltirishicha, o`zbek etnonimi XIV asrda paydo bo`lgan hamda u ma'lum fuqarolar guruhini anglatuvchi etnik atamaga aylangan.[6.39] Yuqorida o`zbek etnonimi sevgi obrazining tashuvchisi bo'lgan go'zalga nisbatan ishlatilgan. Shoir go'zalning birgina qarashi qalbini zabt etganini "o'ljasi qildi" iborasi orqali ifodalaydi.

"Xon urug'i" va "qiyot" so'zlari esa tarixiy-etnik tushunchalarga ishora qilib, go'zalning kelib chiqishini sharqona faxr bilan ulug'laydi. Bu yerda o'zbek etnonimi o'ziga xos go'zallik va kuch timsolidir.

*Bu ulusta xo'blar ko'rduk, vale ey **o'zbekim**,*
Dilraboliqta sizingdek sho'xi ra'no ko'rmaduk. [5.127]

Baytda yana "o'zbekim" etnonimi samimiy ifoda bilan qo'llanadi. Shoir o'z diyorida ko'plab go'zallarni ko'rganini aytadi, biroq shaxsiy tuyg'ular bilan boyitilgan holda "sizga teng keladigani yo'q" degan g'oyani ilgari suradi. Etnonim bu yerda milliy iftixor, samimiylik va muhabbat vositasi sifatida qo`llangan.

Ko'zung ko'nglum olur yuz ol birla,
*Bilibtur **turk** ekoch, bu muncha ko'p ol.* [5.140]

*Ishq mulkinda asir etgan **mo'g'ul** o'ljosidek,*
*Xasta ko'nglumni **xitoyi** ko'zlari yag'mosidur.* [5.75]

Baytda "mo'g'ul" va "xitoyi" etnonimlari metaforik ma'noda qo`llanilgan. "Mo'g'ul o'ljosi" iborasi tarixiy kontekstdan kelib chiqib kuch, zabt etish, bosqinchilik ma'nolarini ifodalasa, "xitoyi ko'zlari" esa nafosat va rahmsizlik timsoli sifatida keladi. Bu orqali shoir ko'nglining dardini milliy va tarixiy obrazlar vositasida chuqur ifodalagan.

*Rum elinda bir ajab **hindu** tushubtur xolikim,*
Nofayi Chinu Xo'tan bir kamtarin lolosidur. [5.75]

Ushbu baytda "Rum", "hind", "Chin", "Xo'tan" kabi to'rtta geografik va etnik birliklar jamlangan. "Hindu" so'zi o'ziga xos joziba sohibi bo'lgan go'zalni ifodalasa, "Chin" va "Xo'tan" iboralari nafosat manbai bo'lib, "lolo" (loladay lab) timsoli bilan uyg'unlashgan. Bu yerda Atoiy geografik va etnik obrazlar vositasida go'zallikni sharqona romantik ruhda tasvirlaydi.

Orazing olinda oyin necha arz etgay falak,
*Bir **urus** qul besh emasdur xisravi sayyorasi.* [5.226]

Baytda "**urus**" ya'ni **"rus"** etnonimi ishlatilgan bo'lib, bu yerdagi ma'no zamirida go'zal yuzining qanchalik yuksak va munosib ekanini tasvirlash yotadi. Shoir go'zallik mezoni sifatida "xisravi sayyorasi" (sayyoralarning podshohi) ni olayotib, urus (rus) qulining ham unga teng emasligini ta'kidlaydi. Bu, go'zallik timsolining yuksak ideallashuvi va etnik obrazlar orqali qiyosiy ta'sir kuchining kuchaytirilganligini ko'rsatadi.

Bo'lmasa ushshoq uchun maydin agar jon rohati,
*Demas erdilar **arab** noziklari otini roh.* [5.48]

Arab - xalq nomi, arabistonlik arablar.[1.104] Atoiy ushbu baytda "Arab noziklari" iborasi qo`llaydi. Bu ibora sharq mumtoz adabiyotida mukammallik, nafosat va tafakkur timsolidir. Bu o`rinda ham arab go'zallarining ma'naviy va jismoniy go'zalligi shunchalik yuqori darajada tasvirlanganki, ular sevgi yo'lini "roh" deb atashadi. Bu orqali majoziy tarzda ularning muhabbatda yetukligini ifodalaydi. "Roh" so`zi "Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati"da ikki xil ma'noda keltiriladi: 1. May, chog`ir. 2. Yo`l, maslak. [2. 631-632] Atoiy bu so`zni may ma'nosida qo`llaydi va oshiqlar uchun may qanchalik aziz bo`lsa, arab noziklari ham shunday azizdir.

Shoir huddi ushshoqlar (oshiqlar) uchun may jonga rohat bo`lmaganida edi, arab nozik go`zallari otini ham roh(may) deb aytishmas edi, degan o`xshatishni keltiradi. Bilamizki, mumtoz adabiyotda may ishq ramzi sifatida keltiriladi. Bu o`rinda ham may orqali ishq ifoda etilmoqda.

Oldi ko'ngulni bir buti ayyori sho'x shang,
Kim, ki kufr o'granur ko'zidin kofiri ***farang***. [5.130]

Farang so`zi Yevropa ma'nosini anglatuvchi so`z [3.320] bo`lib, bu baytda "**farang**" etnonimi bilan birga kuchli majoziy mazmun hosil qilingan. Farang go'zali, ko'zi orqali *"kufrni o'rgatadigan"* darajada sehrli ta'sir kuchiga ega. U nafaqat o'z xalqiga, balki dindor shoirga ham dushvor ahvol baxsh etadi. Shoir bu bilan nafaqat go'zallikni, balki uning xavfli jozibasini ham ifoda etadi.

Xulosa

Atoiy devonida uchraydigan etnonimlar adibning davri ijtimoiy-siyosiy hayoti, tarixiy-madaniy muhitini yoritishda muhim til birliklaridan biridir. Ushbu etnonimlar nafaqat ma'lumot beruvchi vosita, balki poetik obraz sifatida ham xizmat qiladi. Atoiy devonida "turk", "o`zbek", "mo'g'ul", "arab", "hind" kabi etnonimlar ko'proq uchrab, ular orqali obrazlardagi go'zallik, kuch kabi xususiyatlar tasvirlanadi. Atoiy bu etnonimlarni ko'pincha majoziy, metaforik ma'noda ishlatadi. Masalan, "turk" so'zi ko'pincha go'zal, noz-karashmali yoru ma'shuqani ifodalasa, "xitoy" yoki "hind" esa ulug'lik, nafislik, qadimlik obrazini aks ettiradi. Bu esa etnonimlarning Atoiy poetikasida shakllangan badiiy lug'atning tarkibiy qismi ekanini ko'rsatadi.

REFERENCES

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. – Т.: Фан, 1983. Т. 1. - 654 б.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. – Т.: Фан, 1983. Т. 2. - 644 б.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. – Т.: Фан, 1984. Т. 3. - 624 б.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. – Т.: Фан, 1985. Т. 4. - 636 б.
5. Девони Шайхзода Атойи. – Т.: Фан, 2008. - 320 б.
6. Uluqov N. Turkiy filologiyaga kirish.-T.: "Navro`z" nashriyoti,2016. -172 b.
7. Islamova, D. (2021). The main parameters of the artistic landscape of the world. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(6), 745-749. https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=6&article=125
8. Islamova, D. (2023). HAMID OLIMJONNING «O'ZBEKISTON» SHE'RIDA QO'LLANILGAN TRANSPOZITIV SO 'ZLARNING USLUBIY VA FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI. 2018, No. 4 (110/1), 110(77), 5-10. https://scholar.google.com/scholar?cluster=7941994830465779562&hl=ru&as_sdt=2005

9. Yusupova, O. S. (2021). People's oral creative work and syntactic parallelism. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(3), 242-246. https://scholar.google.com/scholar?cluster=13166992558897285 18&hl=ru&as_sdt=2005
10. Karimov, S. A., Yusupova, O. S., & Umirova, S. (2020). Linguopoetic features of syntactic repetition in poetry. *Journal of Critical Reviews*, *7*(11), 333-336.
11. https://scholar.google.com/scholar?cluster=3116520016717462205&hl=ru&as_sdt=2005